## 2-UMUMIY AMALIYOT SHIFOKORLARI TAYYORLASH KAFEDRASI

**Kafedra mudiri: t.f.n, docent: Ergasheva Zumradhon Abdukayumovna**
**Ish vaqti: 8.00 - 16.00 +998 90 571 66 88 zumrad.ergasheva@inbox.ru**
**2-UASHT kafedrasi Andijon viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazi qoshida joylashgan.**

### Kafedra tarihi

Kafedra 1996-yili tashkil etilgan, 2011-yilgacha professor Ne'matjon Salievich Mamasaliev rahbarlik qilgan. Kafedra mudiri, tibbiyot fanlari doktori, professor N.S.Mamasoliev rahbarligida mazkur kafedra umumiy amaliyot shifokori faoliyati tizimiga birinchilar qatorida mamlakat ko'lamida asos solindi u shakllantirildi va mazkur kafedraning kelajak istiqboli uchun mustahkam "poydevor" yaratildi. O'quv jarayonini Evropa standartidagi kabi sifat darajasiga ko'tarishda hamda kadrlar tayyorlashda "Ta"lim uchburchagini" takomillashtirib borishda izchil amaliy ishlar amalga oshirildi. Respublikada "professor N.S Mamasoliev maktabi" ni yaratdi. Kafedrada tashkil etilgan "UMR" nomli to'garagi va talabalar ilmiy jamiyati a'zolaridan Respublika nufuzidagi fan olimpiadasi qatnashchilari fahrli o'rinlarni egalladilar, "Prezident" va "Ibn Sino" stipendiatlari etishib chiqqan. Viloyat terapevtlar jamiyati va "Ichki kasalliklar, kardiologik noinfeksion kasalliklar profilaktikasi" bo'yicha muammolari hayati raisi lavozimida ko'plab shogirdlar etishtirgan. Kafedrada «Yurakning noinfeksion kasalliklarini epidemiologiyasi muammolari» mavzusidagi ilmiy yo'nalishda ish olib borilgan. Bu davrda kafedra hodimlaridan doktorlik (M.M.Mirsaydullaev, H.H. Tursunov, Raimjonov U), nomzodlik (Turgunov O.T., Niyozo'v Z.M. Ibragimova N, D.M.Kalandarov, Holdarova G.B, Sodiqova D.T, Nizomova S, Kurbonova R.R.lar) dissertasiyalarini himoya qildilar. 2011-2019 yilgacha dosent D.M.Kalandarov boshqardi. Bu yillar davomida kafedra juda ko'p yutuqlarga erishdi. 2014-yil dosent D.M. Kalandarov ilmiy raxbarligida davolash fakul'teti 717-guruh talabasi Rahimberdiyev Shohruh Ravshanbekovich «Farmakoepidemiyalogiya gipertonicheskoy bolezni» mavzusi bo'yicha «Prezident» stipendiyasi sovrindori boldi. Kafedra mudiri yosh bo'lishiga qaramay oliygoh va jamoa uchun fidokoronalik bilan ish olib borgan.

Kafedrani 2019-yildan dosent Ergasheva Zumradhon Abdukayumovna boshqarib kelmoqda. Hozirda kafedrada docentlar: Jo'raboev B.N.., Sodiqova D.T., Qutliqova G.M., Yuldasheva G.B. Assistentlar: Hudoyarova N.K., Abdulhaeva Z.A., Urmanova A.Sh., Bustanov Sh.Ya. faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Kafedra professor-o'qituvchilari tamonidan 200 dan ortiq ilmiy mahsulotlar tayyorlangan. Kafedrada 20 ta iqtidorli talabalar va 1 ta "Iste'dod" nomli ilmiy maktab faoliyat olib borishadi. Kafedra hodimlari AVKTTM gastroenterologiya, kardiologiya, revmatologiya

pulmanologiya, bo’limlarida, shahar 5-Oilavij poliklinikasida davolash va konsul'tativ ishlarini olib borishmoqda. Shuningdek har oyda «Sog’lomlashtirish haftasi» va Prezidentning PK 2120-qaroriga asosan aholini sog’lomlashtirish to’g’risidagi tadbirlarida faol ishtirok etadilar.

Halqaro hamkorlikni kuchaytirish, o’quv jarayonini zamonaviylashtirish, grant ilmiy loyihalarni keng amalga oshirish, ho’jalik shartnomasi asosida faoliyatni kuchaytirish va kafedra moddiy-tehnik bazasini
takomillashtirish, talabalar va shifokorlar uchun darslik, o’quv qo’llanma, o’quv-uslubiy qo’llanmalar va tavsiyanomalar yaratib berish, mamlakatda terapiya va kardiologiya fanini raqobatdosh qilib rivojlantirishga sezilarli hissa qo’shish ҳamda malakali kadrlar tayyorlab berish kabilarga qaratilgan.

**Kafedra professor-o‘qituvchilarining ro‘yxati**

| | F.I.SH. | Ilmiy darajasi va lavozimi |
|---|---|---|
| **1.** | **Ergasheva Zumradhon Abdukayumovna** | Kafedra mudiri, dotsent |
| **2.** | **Jo‘raboev Baxtiyor Normatovich** | Dotsent |
| **3.** | **Yuldasheva Gulnora Baxtyarovna** | Dotsent |
| **4.** | **Kutlikova Go‘zal Maxamadjonovna** | Dotsent |
| **5.** | **Sodikova Dilrabo Tojidinovna** | Dotsent |
| **6.** | **Xudoyarova Nazokat Kaxarovna** | Assistent |
| **7.** | **Abdilxayeva Zuhra Adxamjonovna** | Assistent |
| **8.** | **Urmanova Alfiya Shamilyevna** | Assistent |
| **9.** | **Bustanov Sherzodbek Yakubovich** | Assistent |
| **10.** | **Abdusattorov Adahamjon Alisherovich** | Assistent |
| **11.** | **Rahimov Hikmatullo Husanboyevich** | Assistent |
| **12.** | **Qasimova Nihola Kadirovna** | Assistent |

**Kafedrada o’qitilayotgan fanlar**
**BAKALAVRIAT**

Ichki kasalliklarlar fani-davolash va kasb ta`lim yo`nalishi 6- kurs talabalariga

Gospital ichki kasalliklar fani-pediatriya yo`nalishi 6- kurs talabalariga

Klinik labaratoriya ishi fani-davolash va kasb ta`lim, yo`nalishi 6 - kurs talabalariga

Klinik allergalogiya fani- davolash va kasb ta`lim yo`nalishi 6-kurs talabalariga

Klinik allergalogiya- stomatologiya yo`nalishi 3-kurs talabalariga

Klinik labarator diagnostika fani-davolash va kasb ta`lim, yo`nalishi 3 - kurs talabalariga

O’qitish jarayonida talabalar ixtiyorida o’zbek va rus tillaridagi tibbiyotga oid zamonaviy adabiyotlar bilan jixozlangan kutubxona, birlamchi bo‘g‘in mikyosidagi tekshiriladigan asbob-uskunalar bilan, kafedra xodimlari bemorlarni qabul qiladigan oila shifokorining xonasi mavjud.

O’qitish jarayonida prezintatsiya shaklidagi ma’ruzalar, birlamchi bug’in miqyosida tekshiriladigan
usullarni va mulyajlarni qo’llagan xolda amaliy mashg’ulotlar olib boriladi.

**Ertalabki konferensiya**

Ichki kasalliklarlar fanidan- davolash va kasb ta`lim yo`nalishi 6-kurs talabalariga, Klinik labaratoriya ishi- davolash va kasb ta`lim yo`nalishi 6-kurs talabalariga, Gospital terapiya- pediatriya yo`nalishi 6-kurs talabalariga, Klinik allergalogiya- davolash va kasb ta`lim yo`nalishi 6-kurs talabalariga Klinik allergalogiya- stomatologiya yo`nalishi 3-kurs talabalariga, Klinik labarator diagnostika fani-davolash va kasb ta`lim, yo`nalishi 3 - kurs talabalariga

Amaliy mashg'ulot darslarida muammoviy o'qitish va turli xil yangi pedagogik o'qitish usullaridan foydalaniladi: turli xil o'yinlar, ADTI qoshidagi amaliy ko'nikmalar laboratoriyasidagi mulyaj va manekenlardan, shuningdek AVKTTM ning poliklinikasining klinik laboratoriyasidan foydalaniladi.

REDMI NOTE 6 PRO
MI DUAL CAMERA

**KAFEDRA FAOLIYATI**

Xalqaro xamkorlikni kuchaytirish, o’quv jarayonini zamonaviylashtirish, grant ilmiy loyixalarni keng amalga oshirish, xo’jalik shartnomasi asosida faoliyatni kuchaytirish va kafedra moddiy-texnik bazasini takomillashtirish, shifokorlar uchun qo’llanma va tavsiyanomalar yaratib berish, mamlakatda terapiya va kardiologiya fanini raqobatdosh qilib rivojlantirishga sezilarli xissa qo’shish hamda malakali kadrlar tayyorlab berish kabilarga qaratilgan.

**Kafedra ilmiy yo‘nalishlari** Keng ko’lamli, o’ta dolzarb masalalar va jaxon fani uchun aktual muammo bo’lib xisoblangan, yurak qon-tomir va surunkali noinfeksion kasalliklar epidemiologiyasi hamda profilaktikasi, ekologik tibbiyot, klimatopatologiya, farmako-epidemiologiya, ichki kasalliklarni shakllanishi, klinik kechishi, davolash va profilaktikasi xususiyatlari kabi mavzularni o’z ichiga oladi.

Maxalliy va chet ellarda 100 ga yakin ilmiy makolalar va tezislar nashr etilgan.

Kafedrada chop etilgan o‘quv-uslubiy qo‘llanma va ko‘rsatmalar

| № | F.I.SH. | O‘quv -uslubiy qo‘llanmani nomi va nashriyot nomi | Nashrga tavsiya etgan vazirlik yoki kengash nomi, sanasi, qaror raqami |
|---|---|---|---|
| 1. | Kalandarov D.M. | Nafas olish tizimi a’zolari kasalliklarini o’smirlar, qariyalar va xomiladorlarda kechishi. O'quv qo'llanma | O’zbekiston Respublikasi oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi. 2015 yil 21 avgust “303” sonli buyrugi. Ro’yxatga olish raqami 303104 |
| 2 | Kalandarov D.M. | Klinicheskie navbiki vracha obshey praktiki. O’quv qo’llanma | O’zbekiston Respublikasi oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi. 2015 yil 21 avgust “303” sonli buyrugi. Ro’yxatga olish rakami 303102 |
| 2. | Kalandarov D.M. | Intrepitatsiya i otsenka rezultatov paraklinicheskix issledovaniy v diagnostiki vnutrennix bolezney. O’quv qo’llanma | O’zbekiston Respublikasi oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi. 2015 yil 21 avgust “303” sonli buyrugi. Ro’yxatga olish raqami 303103 |
| 3. | Mamasoliev N.S. Qalandarov D.M. Jo‘raboev B.N. | “Bronxial astma va surunkali o’pka obstruktiv kasalliklari” | ADTI |
| 4. | Kalandarov D.M. Sodikova D.T. Kutlikova G.M. | “Gipolipedemicheskie i gipokoagulyantnie sredstva: xarakteristika Issledovaniya spetsificheskix i toksiologicheskix svoystv ” | ADTI |

**Kafedra va kafedra xodimlari erishgan e’tiborli yutuqlari**:

O'quv jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni keng kiritib borib jamoa va talabalar orasida katta

obro’-e’tiborga ega bo’lishgan. SSV ning terapevtik xizmatni takomillashtirish va tug'ish yoshidagi ayollarni sog‘lomlashtirish hamda sog’lom oilani yaratish dasturi bo’yicha keng qamrovli ishlarni amalga oshirishadi, mamlakat ko’lamida tayyorlangan dissertatsiyalar va darsliklar hamda monografiyalar taxlil qilish hamda baxolash ishlarida muntazam faol ishtirok etishadi. Kafedra grant loyixalarni bajarishda va xalqaro xamkorlik ishlarini kengaytirishda ibratli ishlarni amalga oshirgan hamda katta tajribaga ega. Respublikaga ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlab berishda katta xissalarini qo’shishgan. Farg’ona Vodiysi ko’lamida tibbiyotning birinchi bo‘g‘ini shifokorlari murabbiylari sifatida serqirrali faoliyat ko’rsatishadi.

Kafedrada 18 ta iqtidorli talabalar va 1ta “Umr” nomli ilmiy maktab faoliyat olib borishadi.

**Kafedra elektron kutubxonasiga** ega va u 5000 dan ortiq ilmiy manbalarni o'z ichiga olgan. Pedagog va talabalar mustaqil faoliyatini samaralashtirib borishda ulardan unumli foydalaniladi.